



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan • WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz • 2026-yil 13-mart, № 49 (9220)

Juma Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



AXBOROT TEXNOLOGIYALARI SOHASIDAGI JINOYATLAR VA HUQUQBUZARLIKLARGA QARSHI KURASHISH SAMARADORLIGI OSHIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 12-mart kuni kiberjinoiyatlar va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olish samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Bugungi kunda mamlakatimizda internet tarmog'ida axborot tarqatish va ma'lumot izlash imkoniyatlari kengaymoqda. Jumladan, O'zbekistonda internetdan foydalanuvchilarning soni 31 milliondan oshgan bo'lib, shundan 14 millioni ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanmoqda.

Shu bilan birga, huquqbuzarlarning internet va ijtimoiy tarmoqlardan g'arazli maqsadlarda foydalanish holatlari kun sayin ortib bormoqda.

Xususan, so'nggi olti yilda yurtimizda kiberjinoiyatlar bo'yicha murojaatlar soni 48 baravarga oshgan. O'tgan yilda sodir etilgan firibgarlik jinoyatlarining 82 foizi, o'g'irlik jinoyatlarining 76 foizi kibermafkanda sodir etilgan. Ular orqali jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan moddiy zarar 2 trillon so'mdan oshgan.

Ta'kidlanganidek, axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning keskin ko'payib borayotgani milliy qonunchilikka shunday turdagi jinoiyatlar uchun jazo choralarini og'irlashtirish va kiberjinoiyatlar yangi shakllari uchun javobgarlik belgilash bo'yicha normalarni kiritish vaqti kelganini ko'rsatmoqda. Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoiyatlar hamda ko'plab fuqarolarga jabr keltirayotgan "moliyaviy piramida" uchun jazo choralarini kuchaytirish maqsadga muvofiq ekanini qayd etildi.

Fuqarolarning o'z nomlariga rasmiylashtirilgan elektron to'lov vositalari hamda abonent raqamlardan foydalanishda shaxsiy ma'lumotini oshirish maqsadida o'z nomidagi elektron to'lov vositasi, kriptohamyoni, SIM-kartasi va elektron akkauntlardan kiberjinoiyatni sodir etishda foydalanilishiga yo'l qo'yganlik uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik belgilash taklif qilindi.

Ta'kidlash kerakki, bugun muhim axborot infratuzilmasi obyektiga qarshi qaratilgan kiberhujumlar natijasida katta salbiy oqibatlarga va moddiy zarar olib keluvchi kiberhujumlar global tus olib, respublikamizda ham kuzatilmoqda. Bu esa yuridik shaxslar o'z tasarrufidagi axborot tizimlarining xavfsizligini bugungi kundagi zamonaviy tahdidlarga munosib tarzda takomillashtirib borishi va kiberxavfsizlikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratishini taqozo etmoqda.

Shunga ko'ra, yuridik shaxslar tomonidan axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik talablariga rioya etmaganlik uchun oqibat kelib chiqqan-chiqmaganidan qat'i nazar, ma'muriy javobgarlikni belgilash taklif qilindi.

Ushbu amaliyot masofadan moliyaviy xizmatlarni ko'rsatuvchi banklarga ham taalluqli bo'lib, ular ham o'z tizimlarida firibgarliklarning oldini olish bo'yicha himoya va xavfsizlik choralarini muntazam takomillashtirib borish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Xususan, o'tgan yillarda 3 ta bank tizimidagi zaiflik tufayli 3025 nafar mijozga 17 milliard so'm moddiy zarar yetkazilgan.

Shu nuqtayi nazardan, tijorat banklari, to'lov tizimi operatorlari va to'lov tashkilotlari axborot xavfsizligi hamda kiberxavfsizlik talablariga rioya etmaganligi natijasida sodir etilgan kiberjinoiyat oqibatida yuzaga kelgan moddiy zarar uchun javobgar bo'lishini qonundan mustahkamlash tashabbusi ilgari surildi.

Taqdimotda uyushgan jinoyatchilikning sodir etish shakli va uslublari yangilanib borayotgani ko'rsatib o'tildi.

Uyushgan guruhlar tomonidan jamiyatda yurish-turish qoidalarini ochiqchasiga mensimasdan, o'zini qonundan ustun qo'yib, bezorilik jinoyatlarini sodir etganligi yoki bezorilik jinoyatining og'ir shakllaridan biri – o'qotar qurolni namoyish qilib yoki uni qo'llab hamda takroran sodir etganligi, shuningdek, jamoat tartibini saqlash vazifasini bajarib turgan hokimiyat vakiliga qarshilik ko'rsatgan holda sodir etilganlik uchun jazo choralarini bugungi kunda yetarli ta'sir kuchiga ega emasligi ta'kidlandi.

Shuningdek, so'nggi vaqtlarda jangovar (aralash) sport turlari bo'yicha yashirin ravishda noqonuniy janglar tashkil qilinib, ularda yoshlarning ishtirok etayotgani kuzatilmoqda. Biroq bugungi kunda buning

uchun javobgarlik choralarini mavjud emasligi ko'rsatib o'tildi.

Shu bois qonun hujjatlariga mana shunday xavf-xatarlarning oldini olish, ularga qarshi ayovsiz kurashish, bunday illatni tag-tomiri bilan yo'qotishga qaratilgan normalarni kiritish vaqti kelgani ta'kidlandi.

Og'ir va o'ta og'ir turdagi jinoiyatlarini sodir etish maqsadida jinoiy uyushma tashkil qilganlik, uni moliyalashtirganlik, ular tomonidan sodir etilgan jinoyatlarini yashirishga homiylik qilganlik, jangovar sport turlari bo'yicha musobaqalarni noqonuniy tashkil qilganlik va o'tkazganlik uchun jinoiy javobgarlikni belgilovchi, bezorilik jinoyati uchun jazo choralarini kuchaytirishni nazarda tutuvchi, shuningdek, qonunga zid ravishda tashkil etilgan jangovar sport turlari bo'yicha musobaqalarda qatnashganlik uchun ma'muriy javobgarlikni belgilovchi normalarni kiritish taklif etildi.

Muhokama qilingan yo'nalishlar bo'yicha ishlab chiqilgan axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etiladigan huquqbuzarliklarga qarshi kurashish hamda uyushgan va jamoat joylaridagi jinoyatchilikka qarshi kurashishning jinoiy-huquqiy mexanizmlarini yanada kuchaytirishga qaratilgan qonun loyihalari taqdimot qilindi.

Prezidentimiz takliflarni ma'qullab, mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi. O'ZA.

Shukuh

QADIM QADRIYATLAR BESHIGI — NAVRO'Z

Buyuk olim Abu Rayhon Beruniy o'zining "Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida Navro'z haqida "Bu kun – farishtalar qadrlaydigan kundir, chunki shu kuni farishtalar yaratilgan. Bu kunni payg'ambarlar ham qadrlaydi, chunki shu kuni quyosh yaratilgan. Bu kunni shohlar ham qadrlaydilar, chunki bu kun yilning birinchi kunidir" deydi va uning tarixi bir necha ming yillarga borib taqalishini bayon qiladi.

Darhaqiqat, ming yillardan buyon yashab kelayotgan Navro'zning jozibasini, shukuhini dunyo miqyosida ham tan olinib, 2009-yil 30-sentabrda insoniyat madaniy merosining ajralmas qismi sifatida YUNESKO tomonidan Umumjahon nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritildi. 2010-yilning 19-fevral kuni BMT Bosh Assambleyasining 64-sessiyasida 21-mart "Xalqaro Navro'z kuni" deb e'lon qilindi...

Prezidentimizning "2026-yilgi Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarorini o'qib, xayolimdan ana shu fikrlar o'tdi. Bu yilgi bayram shodiyonalari muqaddas Ramazon hayitiga ulanib ketayotgani ham uning qadrini yana bir karra oshirmoqda. Inson manfaatlarini, uning qadrini yuksaltirishga e'tibor haqli ravishda yurtdosh-bleyasining 64-sessiyasida 21-mart "Xalqaro Navro'z kuni" deb e'lon qilindi...

Munosabat

AYOLLAR VA BOLALAR HIMOYASIGA MUTLAQO YANGI GACHA YONDASHUV

Mamlakatimizda xotin-qizlar va bolalarni har qanday zaryiq hamda zo'rvonlikdan asrash, ularning huquqlarini ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Davlatimiz rahbarining shu yil 3-martdagi "Ayollar va bolalar huquqlarining himoyasini kuchaytirish hamda ularga nisbatan zaryiq va zo'rvonlik holatlarining oldini olish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy-huquqiy choralar to'g'risida"gi Farmoni bu boradagi islohotlarning mantiqiy davomi bo'ldi, desak, ayni haqiqat.

Ushbu hujjatda belgilangan vazifalar ayollar va bolalarni har qanday zaryiq hamda zo'rvonlikdan himoyalash, jamiyatda bunday holatlarga nisbatan murosasiz muhitni shakllantirish, shuningdek, davlat organlari va tashkilotlarining mazkur yo'nalishdagi faoliyatini muvofiqlashtirilgan holda samarali yo'lga qo'yishda katta ahamiyatga ega.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqda ki, zo'rvonlikning oldini olishda, avvalo, profilaktik ishlar

muhim o'rin tutadi. Farmonda bu borada mahalla instituti, xotin-qizlar faollari, ta'lim muassasalari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda jamoat tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash nazarda tutilgan e'tiborga molik. Zero, mahallalarda oilalar holatini o'rganish, muammoli vaziyatlarni erta aniqlash va profilaktik choralar ko'rish orqali zo'rvonlik holatlarining oldini olish mumkin.

E'tiborlisi, endilikda hujjat bilan zo'rvonlik holatlariga qarshi kurashish borasida mutlaqo yangi yondashuv ko'zda tutilmoqda. Xususan, himoya orderi berilgan ayollar uchun tezkor yordam chaqiruv tizimi – maxsus mobil ilovalar orqali "SOS" signali yuborish imkoniyati joriy etiladi. Bu huquqni muhofaza qiluvchi organlarni xavf tug'ilganda, o'z vaqtda xabardor etishga imkon beradi.

Senat qo'mitasida

RAQAMLI TIJORATNI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN QONUNLAR



Oliy Majlis Senati Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasining yig'ilishida senatorlar elektron tijorat ishtirokchilarining huquq va manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, ayrim turdagi mahsulotlarni identifikatsiya vositalari orqali majburiy raqamli markirovkalash tizimini takomillashtirish masalalarini ko'rib chiqdi.

Onlayn muloqot

MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARGA KIRITILAYOTGAN O'ZGARTIRISHLAR KO'RIB CHIQUYDI

Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi raisi Erkin Gadoyev MDH ishtirokchilari davlatlari Parlamentlararo Assambleyasining Nazorat-byudjet komissiyasi majlisida onlayn shaklda ishtirok etdi.

MDHga a'zo davlatlar parlamentlari vakillari, ekspertlar va mutaxassislar qatnashgan tadbir doirasida Assambleya faoliyatining moliyaviy ta'minoti bilan bogliq qator masalalar muhokama qilindi.

Xususan, 2025-yil uchun moliyaviy majburiyatlarining bajarilishi, Assambleya faoliyatini ta'minlash bo'yicha daromad va xarajatlar smetasining ijrosi hamda 2026-yil uchun moliyaviy ko'rsatkichlarga

kiritilayotgan o'zgartirishlar ko'rib chiqildi. Shuningdek, Assambleya faoliyatini moliyalashtirish tartibini takomillashtirish, 2026-yilga mo'ljallangan ish rejasiga aniqliklar kiritish hamda Nazorat-byudjet komissiyasining o'tgan yildagi faoliyati yuzasidan ham fikr almashildi.

Muhokama yakunlari bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

"Hukumat soati"

DEPUTATLAR VAZIR OLDIGA QANDAY MASALALARNI QO'YDI?

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida O'zLiDeP fraksiyasi tashabbusi bilan navbatdagi "Hukumat soati" bo'lib o'tdi. Unda mamlakatimizda investitsiya faoliyatini rivojlantirish holati, investorlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar hamda hududlarda sanoat loyihalarini amalga oshirish masalalari muhokama qilindi.



Kun tartibidagi masala yuzasidan deputatlar savollariga javob berdi. Sanoat va savdo vaziri Laziz Qudratov javob berdi.

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda Prezidentimiz rahbarligida mamlakatimizda investitsiya va biznes muhitini tubdan yaxshilash, sarmoyadorlar faoliyatini qulay shart-sharoitlar yaratish, bu borada qonun ustuvorligi va huquqiy kafolatlarni mustahkamlash maqsadida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, investorlar bilan ishlashning yaxlit tizimi joriy qilinib, ishbilarmonlar huquqlarining himoyasi

kuchaytirildi. Chet ellik investorlar uchun ko'chmas mulk sotib olish, O'zbekistonga kelib-ketish va yashash shartlari keskin soddalashtirildi. Prezident huzuridagi Xorijiy investorlar kengashi esa investorlar masalalariga tezkor yechim topish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoyalarni jalb etish va xususiy sektorni rivojlantirishga xizmat qilyapti.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada davlat qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini ta'minlashi mustahkamlab qo'yilgani mamlakatda biznes yuritish uchun ochiq va barqaror muhitni

shakllantirish, O'zbekistonni xorijiy investorlar uchun ishonchli va uzoq muddatli hamkorga aylantirish, har bir sarmoyador o'zini erkin va ishonchli his qilishi uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratdi.

Davlatimiz rahbari tomonidan uzog'ni ko'zlab olib borilayotgan ochiq va pragmatik tashqi siyosat aynan investitsiyalarni jalb etish bilan uyg'unlikda barqaror iqtisodiy o'sishga xizmat qilmoqda. Qonunchilik bazasining mustahkamlanishi O'zbekistonning investorlar uchun jozibador markazga aylanishiga yo'l ochmoqda.

Eshituv

MAQSADLI INDIKATORLARNING BAJARILISHI MUHOKAMA MARKAZIDA

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Mehnat, qo'liqni saqlash va ijtimoiy masalalar qo'mitasining yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Unda Sog'liqni saqlash, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirliklari, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, "Sog'lom avlod uchun" xalqaro xayriya fondi, Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi hamda O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining "Birinci darajali

byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning byudjet mablag'laridan foydalanishi bilan bogliq maqsadli indikatorlarning bajarilishi to'g'risida"gi axborotlari eshitildi. Dastlab, Sog'liqni saqlash vazirligining maqsadli indikatorlar bajarilishi holati yuzasidan axboroti ko'rib chiqildi.

FAKT VA RAQAMLAR

- Irrigatsiya va melioratsiya tadbirlari natijasida so'nggi besh yilda 826,5 ming gektar yer qishloq xo'jaligi foydalanishiga kiritildi.
- 2026-2027-yillarda 620 ming gektar yaylov tiklanadi, shuning 300 ming gektarida yaylov o'simliklari ekiladi, 130 ming gektarida quduqlar o'rnatiladi.
- O'tgan yilda 44 ming gektar samarasiz yerlarda intensiv va sanoatlashgan bog' hamda tokzorlarga asos solinib, 37 mingta ish o'rni yaratildi.
- 2026-yilda 25,5 ming gektar mevali bog'lar va 5 ming gektar uzumzorlar tashkil qilinib, 48 mingta doimiy hamda mavsumiy ish joyi ochiladi.

Qishloq xo'jaligida yangi yerlarni o'zlashtirish va sohada ilm-fanni yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha takliflar taqdimotidan.

RAQAMLI TIJORATNI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN QONUNLAR



"O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga elektron tijorat sohasini takomillashtirishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonunning muhokamasi davomida elektron tijorat ishtirokchilari hamda operatorlarning huquq va majburiyatlarini belgilash, shuningdek, transchegaraviy elektron tijoratni amalga oshirish, raqamli mahsulotlar eksporti va importining o'ziga xos xususiyatlarini tartibga solishni nazarda tutuvchi o'zgartirishlar mazmun-mohiyati haqida fikr yuritildi.

Majlisda "Raqamli markirovkalash tizimining samaradorligi oshirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun ham ko'rib chiqildi.

Unga asosan, elektron shakldagi xizmatlarni ko'rsatuvchi yoki elektron savdo platformalari orqali tovarlarni realizatsiya qiluvchi chet el yuridik shaxslariga soliq solinishi va ularning hisobga qo'yilishi hamda hisobdan chiqarilishi borasida yangi normalar mustahkamlanmoqda.

Tovarlarini majburiy markirovkalash qoidalariga rioya etilishi bo'yicha masofaviy soliq tekshiruvini mazkur qoidalarini buzish holatlari bilan bog'liq huquqbuzarlik to'g'risida ikki marta rasmiy ogohlantirish berilganidan keyin o'tkazish belgilanmoqda.

Qo'mita a'zolari o'z chiqishlarida ushbu qonun aholini sifatli va ishonchli mahsulotlar bilan ta'minlashga, "yashirin iqtisodiyot"ni yanada qisqartirishga hamda soliq to'lovchilar uchun soliq yukini kamaytirishga xizmat qilishini ta'kidladilar.

Muhokama yakunida qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi. "Xalq so'zi".

ISLOHOTLAR TARANNUMI

Keyingi yillarda Prezidentimiz tomonidan amalga oshirilayotgan beqiyos islohotlar natijasida mamlakatimizda hayratlanarli o'zgarishlar yuz bermoqda. Iqtisodiyot sezilarli darajada o'sdi. Ulkan bunyodkorliklar shaharu qishloqlarimiz ko'rkiga ko'rk qo'shdi. Eng muhimi, inson qadr topdi.

Taqdimot

Oliy Majlis Senati a'zosi, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, yoshlar murabbiysi Abdusaid Ko'chimovning "Yuksalish simfoniyasi" nomli kitobida ana shu tarixiy yangilanishlar o'ziga xos tarzda yoritilgan.

Guliston shahridagi "Yoshlar markazi"da o'tkazilgan mazkur kitob taqdimotida bu alohida ta'kidlandi.

Tadbirda so'zga chiqqanlar asarning ma'naviy-ma'rifiy

ahamiyati haqida fikr yuritir ekan, u Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan Yangi O'zbekiston g'oyasi asosida olib borilayotgan ishlarining badiiypublististik ifodasi bo'lganini e'tirof etdi. Kitobda Vatanimizning barcha hududlari qamrab olingani, xususan, Sirdaryoda so'nggi yillarda ro'y bergan yangilanishlar, bunyodkorliklar, aholi turmush sifati yuksalayotgani qalamga olingan.

Ahmadali SHERNAZAROV ("Xalq so'zi").

DAVLAT HOKIMIYATI VA BOSHQARUVI ORGANLARINING OCHIQLIK HOLATI TALABGA JAVOB BERADIMI?

Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi hamda xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining qo'shma majlisi bo'lib o'tdi.

Qo'shma majlis

Senatorlar, xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlari, mahalliy Kengashlar doimiy komissiyalari hamda Senat huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zolari, siyosiy partiyalar va nodavlat notijorat tashkilotlari rahbarlari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari qatnashgan majlisda Jizzax viloyatida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarida ochiqlik darajasini o'rganish natijalari muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, mamlakatimizda davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini

ta'minlash, jamoatchilik nazorati institutlarini rivojlantirish hamda korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashishga qaratilgan keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu borada Prezidentimizning ochiqlik, shaffoflik hamda jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga qaratilgan farmon va qarorlari, davlat organlari faoliyatini "Ochiqlik indeksi" asosida baholash tizimining joriy etilgani, mahalliy Kengashlar sessiyalarini jonli efir orqali yoritish amaliyotining yo'lga qo'yilgani va davlat xaridlari jarayonlarining raqamlashtirilgani ahamiyatidir.

Amalga oshirilgan ishlar bilan birga, o'z yechimini kutayotgan masalalar ham mavjud. Xususan, Jizzax viloyati hokimligi "Ochiqlik indeksi"da 2022-yilda 70,3 ball bilan respublikadagi o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori ("sariq") natija qayd etgan. 2023-yilda esa 66,3 ball ("sariq") bilan respublika ko'rsatkichiga tenglashgan. Biroq 2024-yilga kelib, respublika ko'rsatkichi bilan birga 48,8 ballga tushib, "qizil" toifaga o'tgan va ochiqlik darajasi keskin pasaygan.

Ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar ro'yxatida ko'rsatilgan 15 ta toifadagi ma'lumotlardan faqat 6 turdagisi Yangiobod va Zomin tumanlari hokimliklari tomonidan e'lon qilingan. Arnasoy, Baxmal, G'allaorol,

Sharof Rashidov, Do'stlik, Zarbdor, Zafarobod, Mirzacho'l, Paxtakor va Forish tumanlari hamda Jizzax shahar hokimliklari tomonidan esa ma'lumotlarning birortasi e'lon qilinmagan.

Xalq deputatlari 12 ta tuman (shahar) Kengashi tomonidan o'tkazilgan sessiyalarning birortasi jonli translyatsiya bo'lmagan.

Tuman (shahar) hokimliklari tizimidagi hamda viloyatdagi boshqa davlat idoralarning 19 nafar xodimi "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonun talablariga zid ravishda tadbirkorlik subyektlarida ta'sischi yoki rahbar sifatida faoliyat yuritib kelgan.

Zomin tumanida 6 nafar, Jizzax shahrida 4 nafar, Sharof Rashidov, Yangiobod, G'allaorol va Do'stlik tumanlarida 2 nafardan, Arnasoy tumanida 1 nafar boshqaruv

xodimi ta'sischi yoki rahbar o'laroq tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanib kelgan.

Buyurtmachi tashkilotlar tomonidan 2025-yilda jami 5 mlrd. so'mlik 9 ta davlat xaridida qonun buzilishi holatlariga yo'l qo'yilgan.

Majlisda viloyatda aniqlangan kamchiliklar yuzasidan mas'ul rahbarlarning hisobot va axborotlari tinglandi.

Muammolarni tizimli bartaraf etish, axborot ochiqligi ta'minlash, texnik va tashkiliy jarayonlarni to'g'ri yo'lga qo'yish yuzasidan amaliy tushuntirishlar berildi.

Qo'shma majlis davomida hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari ijrosi yuzasidan o'nga yaqin masalalar batafsil muhokama etildi va tegishli qarorlar qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

QADIM QADRIYATLAR BESHIGI - NAVRO'Z

Dunyo

chayqalib, Yer sharining turli burchaklarida kuzatilayotgan qurolli to'qnashuvlar haqida eshitir ekan, yurtimizdagi tinchlikka beadad shukronalar aytamiz. Qaysidir bir yurtda kimdir kafansiz ko'milayotgan paytda, biz to'ylarga, bayramlarga deb yangidan-yangi liboslar tiktiyapmiz. Odamlar boshpanasiz qolayotgan bir paytda biz qo'sha-qo'sha uylar qurib, hovli to'ylari o'tkazaymiz. Dasturxonlarimizning o'ta to'kinligidan isrofgarchilik bo'lmasin deb, "Maromiylik" loyihalarini amalga oshiryapmiz. O'zbekligimizdan, O'zbekistonda yashayotganimizdan iftixor qilyapmiz. Erta tongdan shukrona aytib, yurtimizning tinchligini asrayotgan, oilalarimiz farovonligini ta'minlayotgan Yurtboshimizni, yurtdoshlarimizni duolar



qilamiz. Tinchligimizga, bunyodkorligimizga ko'z tegmasin deymiz!

Tinch va farovon yurtga bayramlar yarashadi deganlaridek, bugun xalqimiz Navro'z va hayit ayyomlarini nishonlash taraddudida.

Bu yilgi umumxalq bayrami "Navro'zni ulug'lash - insonni ulug'lashdir!" degan ezgu g'oya asosida keng nishonlanadi. Asrlar davomida ardoqlab kelayotganimiz - Navro'zimizda xalqimizning qadimiy urfodatlari, milliy an'analari, o'zligi mujassam. U qadriyatlarimizning butun bo'y-bastini ko'rsatadi. Yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda, ma'naviyatini yuksaltirishda bu bayramning ahamiyati katta.

Yurtimizda bahor nafasi kezib yurgan shu kunlarda Qashqadaryo uzoqinligini ham barcha hududlarida go'zal va betakror ayyomga qizg'in tayyorgarlik ko'rilmog'uda. Qadimdan mehr-oqibat, saxovat va muruvvat kabi insoniy fazilatlarini targ'ib etib kelgan bayram tadbirlarini tashkil etishda bu yil

ham aynan shu tamoyillarga alohida e'tibor qaratilyapti.

Avvalo, Navro'zning asl mohiyati insonni qadrlash, jamiyatda hamjihatlik va mehr-muruvvat muhitini mustahkamlash g'oyalari amalga namoyon etadi. Shu munosabat bilan Mehribonlik, Saxovat va Muruvvat uylarida yashayotgan insonlar holidan xabar olinib, ularga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatilmog'uda. Har kuni savobtalab insonlar tomonidan kam ta'minlangan xonadonlarda iftorlik o'tkazilmog'uda.

Mehr-muruvvat, tinchlik va totuvlik ramzi bo'lgan Navro'z har bir oilada, mamlakatimizda umuminsoniy qadriyatlarini yuksaltirishga, shukronalik hissinii oshirishga beqiyos hissa qo'shishi bilan ham ardoqli. Zero, hazrat Navoiy aytganidek, "Har tuning qadr o'lubon, har kuning o'lsin Navro'z".

Komila KAROMOVA, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi Qashqadaryo viloyati bo'limi rahbari, senator.

Senat va yoshlar

KASB TANLOVI VA SHAXSIY RIVOJ UCHUN FOYDALI UCHRASHUV



Oliy Majlis Senatida O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti akademik litseyi o'quvchilari ishtirokida uchrashuv o'tkazildi.

Ochiq muloqot shaklida kechgan tadbirda yoshlarga parlament yuqori palatasining faoliyati, tuzilishi, qonun ijodkorligi jarayonidagi o'rni va asosiy vakolatlari haqida ma'lumot berildi. Shuningdek, senatorlar

o'zlarining ish tajribasi haqida so'zlab, qonunlarni ishlab chiqish, muhokamadan o'tkazish va qabul qilish tartibi yuzasidan tushunchalar berdi. Aytilganidek, bunday uchrashuvlar yoshlarning huquqiy va siyosiy bilimini

oshirish, davlat boshqaruvi tizimiga qiziqishini kuchaytirish hamda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadbirda o'quvchilar o'zlarini qiziqirgan savollarga batafsil javob oldi. Bu kabi uchrashuvlar yoshlarning kelgusida kasb tanlovi va shaxsiy rivoji uchun foydali bo'lishi ta'kidlandi. "Xalq so'zi".

DEPUTATLAR VAZIR OLDIGA QANDAY MASALALARNI QO'YDI?

L. Qudratovning aytishicha, mamlakatdagi ochiqlik, kuchli investitsiya siyosati natijasida ayni paytda respublikada umumiy qiymati 319,3 mlrd. dollarga teng bo'lgan 3152 ta investitsiya loyihasidan iborat portfel shakllantirilgan. Ularning 2289 tasi bajarilish bosqichida bo'lsa, 445 ta loyiha xalqaro moliyaviy institutlar ishtirokida amalga oshirilmoqda. Yana 418 ta loyiha bo'yicha muzokaralar davom etmoqda.

Shuningdek, 2026-yilda iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga yo'naltiriladigan xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish bo'yicha aniq chora-

Namangan, Andijon, Samarqand va Farg'ona viloyatlariga to'g'ri kelyapti.

Vazirning ta'kidlashicha, investitsiya muhitini yanada yaxshilash maqsadida loyihalarni g'oya bosqichida ta'minlash uchun investitsiyalarni mahsulotni eksportga chiqarishgacha bo'lgan jarayonda kompleks qo'llab-quvvatlash tizimini joriy etish, investorlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha hududiy markazlar tashkil qilish hamda investitsiya va eksport jarayonlarini boshqarish uchun raqamli platformalarni rivojlantirish choralari ko'rilmog'uda.

Bundan tashqari, maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini yanada takomillashtirish, infratuzilmani rivojlantirish, ma'muriy tartib-taomillarni soddalashtirish hamda xorijiy investorlar ishtirokini kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

"Hukumat soati" davomida deputatlar investitsiya va tashqi savdo jarayonlarini raqamlashtirish, "yagona darcha" tamoyili asosida xizmat ko'rsatish tizimini kengaytirish, investorlar faoliyatidagi ortiqcha byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, sarmoyalarni hududlar kesimida mutanosib taqsimlash masalalari yuzasidan o'z taklif va mulohazalarini bildirdi. Investitsiya loyihalarini amalga oshirishda mahalliy aholini ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini

kengaytirish, sohada malakali mutaxassislar tayyorlash hamda loyihalarni ijrosi ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Muhokama jarayonida deputatlar hududlardagi o'rganishlari davomida ushbu sohada ayrim muammolar kuzatilayotganini aytib, ularni bartaraf etish, iqtisodiyot tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, milliy brendlarni jahon bozorlariga olib chiqishni jadallashtirish hamda investitsiya muhitini yanada yaxshilash bo'yicha qator takliflar berdi. Soha istiqboliga doir qator masalalar yuzasidan vazirga savollar bilan murojaat qildi.

Xususan, O'zLiDeP fraksiyasi a'zosi Aziza Aminova 2026-yilda kambag'allik va ishsizlik yuqori bo'lgan hududlar uchun investitsiyalarni jalb etish va yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha vazirlikning asosiy strategiyasi nimalardan iborat ekanini so'radi.

Vazir bu yo'nalishda aniq chora-tadbirlar belgilab olingani, ko'zda tutilgan masalalarni yechish uchun xalqaro moliya institutlari bilan birgalikda ishlab, asosiy mablag'lar ishsizlik ko'p bo'lgan tumanlarga, hududlarga yo'naltirilayotganini aytdi.

"Milliy tiklanish" DP fraksiyasi a'zosi Nigora Lutfullayeva esa tashqi



savdoda manfiy balansni kamaytirish yo'nalishida vazirlik tomonidan qanday strategik chora-tadbirlar amalga oshirilayotgani bilan qiziqdi. Vazir bu bo'yicha aniq strategiya borligini ta'kidlab, bu boradagi keng ko'lami ishlar haqida to'xtalib o'tdi.

"Adolat" SDP fraksiyasi a'zosi Mavluda Adhamjonova xorijiy investorlar tomonidan tashkil etilayotgan korxonalarda mahalliy ishchilarni ishga olish, ularni o'qitish va malakasini oshirish bo'yicha majburiyatlar qay darajada bajarilayotganini so'radi.

Aytilganidek, har bir investor nafaqat investitsiya olib kelishga, balki malakali kadrlarni tayyorlash tizimini ham yo'lga qo'yishga harakat qilmoqda. Misol uchun, Jizzaxda joylashgan "BYD" zavodi mutaxassislarni Xitoyga olib borib o'qitish bilan birga, korxonada qoshida alohida muhandislik maktabini ochgan va yerda talabalar dual ta'lim tizimi asosida o'qishmoqda.

O'zKDP fraksiyasi a'zosi Shokirjon Ahmedov vazirlik tomonidan sanoat

zonalaridagi yerlardan foydalanish samaradorligi bo'yicha oxirgi marta qachon xatlov o'tkazilgani, samarasiz ishlayotgan loyihalarni bekor qilib, yerlarni real investorlarga qayta taqsimlash borasida qanday choralar ko'rilyotgani bilan qiziqdi.

Vazir hozirgi kunda infratuzilma bilan ta'minlangan 800 gektar bo'sh yer borligini, ularni o'zlashtirish uchun investorlar bilan ishlar olib borilayotgani, majburiyatlarini bajarmagan investorlar va tadbirkorlarga nisbatan choralar ko'rilyotganini bildirdi. Investorlar olti oy ichida loyihani boshlamasa, yer maydoni qaytarib olinishi aytib o'tildi.

O'zbekiston Ekologik Partiyasi fraksiyasi a'zosi Navro'zbek Yusufov esa Toshkent shahridagi kichik sanoat zonalarida chiqindilarni qayta ishlash, tozalash inshootlarini qurish, suv va havoga chiqqanlik bo'yicha talablar yetarlicha bajarilmay kelinyotgani atrof-muhit va havo sifatiga, suv bilan birga, kichik sanoat zonalariga tutas bo'lgan hududlarda istiqomat qiluvchi aholi salomatligiga jiddiy zarar yetkazayotganini ta'kidlab, Vazirlik o'z faoliyati yo'nalishidan kelib chiqib, bu borada qanday ishlarni amalga oshirayotgani so'raldi.

Ushbu savolga ham atroflicha javob berilib, olib borilayotgan ishlar yuzasidan batafsil ma'lumot taqdim etildi.

"Hukumat soati"da deputatlar tomonidan soha istiqboliga qaratilgan qator takliflar berildi va kun tartibidagi masala yuzasidan samarali parlament nazoratini ta'minlashga kelishib olindi.

O'zKDP fraksiyasi a'zosi Shokirjon Ahmedov vazirlik tomonidan sanoat

zonalaridagi yerlardan foydalanish samaradorligi bo'yicha oxirgi marta qachon xatlov o'tkazilgani, samarasiz ishlayotgan loyihalarni bekor qilib, yerlarni real investorlarga qayta taqsimlash borasida qanday choralar ko'rilyotgani bilan qiziqdi.

Vazir hozirgi kunda infratuzilma bilan ta'minlangan 800 gektar bo'sh yer borligini, ularni o'zlashtirish uchun investorlar bilan ishlar olib borilayotgani, majburiyatlarini bajarmagan investorlar va tadbirkorlarga nisbatan choralar ko'rilyotganini bildirdi. Investorlar olti oy ichida loyihani boshlamasa, yer maydoni qaytarib olinishi aytib o'tildi.

O'zbekiston Ekologik Partiyasi fraksiyasi a'zosi Navro'zbek Yusufov esa Toshkent shahridagi kichik sanoat zonalarida chiqindilarni qayta ishlash, tozalash inshootlarini qurish, suv va havoga chiqqanlik bo'yicha talablar yetarlicha bajarilmay kelinyotgani atrof-muhit va havo sifatiga, suv bilan birga, kichik sanoat zonalariga tutas bo'lgan hududlarda istiqomat qiluvchi aholi salomatligiga jiddiy zarar yetkazayotganini ta'kidlab, Vazirlik o'z faoliyati yo'nalishidan kelib chiqib, bu borada qanday ishlarni amalga oshirayotgani so'raldi.

Ushbu savolga ham atroflicha javob berilib, olib borilayotgan ishlar yuzasidan batafsil ma'lumot taqdim etildi.

"Hukumat soati"da deputatlar tomonidan soha istiqboliga qaratilgan qator takliflar berildi va kun tartibidagi masala yuzasidan samarali parlament nazoratini ta'minlashga kelishib olindi.

O'zKDP fraksiyasi a'zosi Shokirjon Ahmedov vazirlik tomonidan sanoat

zonalaridagi yerlardan foydalanish samaradorligi bo'yicha oxirgi marta qachon xatlov o'tkazilgani, samarasiz ishlayotgan loyihalarni bekor qilib, yerlarni real investorlarga qayta taqsimlash borasida qanday choralar ko'rilyotgani bilan qiziqdi.

Vazir hozirgi kunda infratuzilma bilan ta'minlangan 800 gektar bo'sh yer borligini, ularni o'zlashtirish uchun investorlar bilan ishlar olib borilayotgani, majburiyatlarini bajarmagan investorlar va tadbirkorlarga nisbatan choralar ko'rilyotganini bildirdi. Investorlar olti oy ichida loyihani boshlamasa, yer maydoni qaytarib olinishi aytib o'tildi.

O'zbekiston Ekologik Partiyasi fraksiyasi a'zosi Navro'zbek Yusufov esa Toshkent shahridagi kichik sanoat zonalarida chiqindilarni qayta ishlash, tozalash inshootlarini qurish, suv va havoga chiqqanlik bo'yicha talablar yetarlicha bajarilmay kelinyotgani atrof-muhit va havo sifatiga, suv bilan birga, kichik sanoat zonalariga tutas bo'lgan hududlarda istiqomat qiluvchi aholi salomatligiga jiddiy zarar yetkazayotganini ta'kidlab, Vazirlik o'z faoliyati yo'nalishidan kelib chiqib, bu borada qanday ishlarni amalga oshirayotgani so'raldi.

Ushbu savolga ham atroflicha javob berilib, olib borilayotgan ishlar yuzasidan batafsil ma'lumot taqdim etildi.

"Hukumat soati"da deputatlar tomonidan soha istiqboliga qaratilgan qator takliflar berildi va kun tartibidagi masala yuzasidan samarali parlament nazoratini ta'minlashga kelishib olindi.

O'zKDP fraksiyasi a'zosi Shokirjon Ahmedov vazirlik tomonidan sanoat

MAQSADLI INDIKATORLARNING BAJARILISHI MUHOKAMA MARKAZIDA



Ta'kidlanganidek, aholi salomatligini saqlash, sog'lom avlodni tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish, profilaktik sog'lom turmush tarzini keng ommalashtirish, aholiga o'z vaqtida malakali va sifatli tibbiy yordam ko'rsatish ishlarini bajarilgan vazifalar ijrosi samarali bajarilgan. Xususan, gematologiya va onkologiya yo'nalishlarida aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini, ko'lami va samaradorligini oshirish, bemorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda ularni zarur dori vositalari bilan uluksiz ta'minlash, shifoxonalarni zamonaviy diagnostika laboratoriyalari va tibbiy texnikalar bilan jihazlash uchun ajratilgan mablag'lar to'liq o'zlashtirish. Onkologik kasalliklarni I va II bosqichlarda erta aniqlash ko'rsatkichlari darajasi belgilangan rejadan 6,6 foizga oshirilgan.

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining axborotiga ko'ra, mehnat bozorida aholi bandligini ta'minlashga doir hududiy va tarmoq dasturlarini ishlab chiqish, yangi ish o'rinlarini tashkil etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Ishsizlarning ishga joylashtirilishini ta'minlashga qaratilgan maqsadli ko'rsatkichlar ham samarali bajarilgan.

Tadbirda 2025-yil yakuni bilan kambag'allik darajasini kamaytirish rejai 6 foizdan 5,8 foizga, ishsizlik darajasi rejai 7,7 foizdan 5,8 foizga kamaytirilgani deputatlar tomonidan ijobiy baholandi.

Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, davlat tomonidan fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish ko'lami va turlarini kengaytirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilgani ta'kidlandi.

"Sog'lom avlod uchun" xalqaro xayriya fondi, Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi hamda O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tomonidan olib borilgan ishlar ham atroflicha ko'rib chiqildi.

Muhokamalar davomida mutasaddilarga har yilgi Davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lardan unumli foydalanish, bunda maqsadli indikatorlar ijrosiga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni belgilab olish va uni muntazam amalga oshirish yuzasidan tegishli taklif va tavsiyalar berdik, - deydi Mehnat, sog'liqni saqlash va ijtimoiy masalalar qo'mitasi raisi o'rinbosari Baxtiyor Artiqov.

Yig'ilishda Sog'liqni saqlash, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirliklari hamda Migratsiya agentligining "Vazirlik va idoralar rahbarlari va ularning o'rinbosarlarining faoliyati samaradorligi ko'rsatkichlari (KPI) bajarilishi to'g'risida"gi axborotlari ham eshitildi. Davlatimiz rahbarining "Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda xo'jalik birlashmalari faoliyati samaradorligini baholash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan respublika va mahalliy ijro hokimiyati organlari rahbarlari faoliyatini aniq mezonlar asosida baholash tizimiga o'tilgani, o'z navbatida, davlat boshqaruvida natijadorlik, ochiqlik va shaxsiy mas'uliyatni kuchaytirishga xizmat qilyotgani alohida qayd etildi.

Deputatlar sohada samarali ishlar olib borilganini aytib, mutasaddilarga 2026-yil uchun belgilangan "KPI" ko'rsatkichlarini yanada takomillashtirish, strategik yo'nalishlarni aniq belgilash va natijadorlikni oshirish yuzasidan taklif va tavsiyalar berdi.

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan tegishli qaror qabul qilindi. "Xalq so'zi".

AYOLLAR VA BOLALAR HIMOYASIGA MUTLAQO YANGIHA YONDASHUV

Bundan tashqari, xotin-qizlar va bolalarni himoyalashda ularga huquqiy, psixologik va ijtimoiy yordam ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirish, reabilitatsiya hamda moslashtirish markazlari faoliyatini kuchaytirish kabi muhim choralar ko'riladi.



Ayni paytda biz, deputatlar ushbu farmonning mazmun-mohiyati hamda ahamiyatini aholi o'rtasida keng tushuntirishga alohida e'tibor qaratmoqdamiz. Bunday tushuntirish va targ'ibot ishlari fuqarolarning o'z huquqlarini anglab yetishi, ayniqsa, xotin-qizlar hamda bolalar huquqlarini himoyalashga nisbatan jamiyatda mas'uliyat va daxldorlik tuyg'usini kuchaytirishda muhim omil bo'ladi.


Yana bir muhim jihati, farmon bilan jinoyat hamda ma'muriy qonunchilikka tegishli o'zgartirishlar kiritilishi belgilanyapti. Ya'ni jismoniy, ruhiy va iqtisodiy zo'rovonlik uchun javobgarlik choralarini aniqlashirilyotir. Misol uchun, pedofiliyadek jirkanch illatga umrdob qamoq jazosini qo'llash, takroran sodir etilgan zo'rovonlik holatlariga nisbatan jazo choralarini kuchaytirish nazarda tutilmoqda.

Bu hali hammasi emas. Endi ayollar va bolalarga oid ishlar bo'yicha ixtisoslashtirilgan tergovchilar hamda sudyalarni tayyorlash tizimi yo'lga qo'yiladi. Xalqaro va milliy ekspertlar jalb qilingan holda tergovchi va sudyalarni uchun "Jinoyatdan jabrlangan ayollar va bolalar bilan ishlashning o'ziga xos potentsial jihatlarini" maxsus o'quv dasturi tashkil etiladi.

Zulayha AKRAMOVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

DRON – MIROBLARGA KO'MAKCHI

Chortoq tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilari tomonidan informatika fani o'qituvchisi Jahongir Nurmatov rahbarligida "Obi dron" nomli uchuvchisiz uchish qurilmasi yaratildi. To'rt oy davom etgan izlanishlar natijasida ishlab chiqilgan maktab apparati "3D" printerda tayyorlangan mustahkam rama asosida yig'ilgan.



Odatda, dehqonlar amaldagi sug'orish texnologiyasida sunni, asosan, uncha katta bo'lmagan maydonlarga birday tarash orqali oqizishadi. O'quvchilar yaratgan elektron mirob esa 100 gektarga yaqin paykallarni to'liq nazoratga olib, qay qismi chanaqaganu qaysi maydonni ko'llatib yubormaslik kerakligini aniq ko'rsatib beradi. Bu – birinchi navbatda, suvdan tejankorlik bilan foydalanish, degani. Innovator yoshlar o'z qurilmalarini yaqin vaqt ichida taqomillatga yetkazib, to'liq sinovdan o'tkazish harakatida.

Quadratilla NAJMIDDINOV ("Xalq so'zi").

MUSAVVIRLAR QACHON BOSH PANAGA YOLCHIYDI?

Respublika Badiiy akademiyasi Badiiy ijodkorlar uyushmasi a'zosi Rahim Hakimov katta hayotiy tajribaga ega. Uning izlanishlari tufayli qadimiy "ebru bahor" san'atida yangi usul paydo bo'ldi. Rassom uni "Naqshi abri – Buxoro" deya nomladi. Gap shundaki, Turkiya, Niderlandiya, Fransiya kabi davlatlardan tushgan takliflarga ko'ra, ushbu mamlakatlarda shaxsiy ko'rgazmasini tashkil etgan musavvirning yuzdan ziyod asarlari ayni damda uyning zax yerto'lasida, talabga umuman javob bermaydigan sharoitda saqlanmoqda.

Achchiq, ammo ochiq gaplar

Butun umrimni tasviriy san'atga bag'ishladim, – deydi keksa rassom. O'z asarlarini vositasida yurtimizni dunyoga tanitish, yoshlarni milliy qadriyatlarimizni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, madaniy merosga hurmat ruhida tarbiyalash, ulardagi vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytirish kabi xayriy ishlariga baholi qudrat hissa qo'shib kelayapman. Ammo musavvir uchun shu paytga qadar sayohatlar qadami qishin-yozin uzilmaydigan Buxorodek shahri azimda ko'rgazmalar zali hamda ustaxonalarni o'zida jamlagan

O'zbekiston – Buyuk Britaniya: DIPLOMATIK ALOQALARDAN STRATEGIK SHERIKLIK DARAJASIGACHA

O'zbekiston Respublikasi hamda Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatilganiga 34 yil to'ldi. Ushbu davr ikki davlat o'rtasidagi izchil hamjihatlik, yuksak o'zaro ishonch va mustahkam strategik sheriklik tarixiga aylandi.

Biz va jahon

Ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik Buyuk Britaniyaning savdo bo'yicha maxsus vakili Lord Deydysning yurtimizga tashrifi bilan yanada mustahkamlandi. Qolaversa, Londonda Markaziy Osiyo va Britaniya formatidagi birinchi tashqi ishlar vazirlari uchrashuvining o'tkazilgani, "S5+1" ko'rinishidagi makzur sammitda muhim nodir metallar razvedkasi va qazib chiqarish, infrazuilmalar, logistika, energetik xavfsizlik, Angliya huquqi va ta'limi sohalarida hamkorlik qilishga kelishilgan o'zaro munosabatlarda tub burilish yasadi.



Ta'kidlash joizki, o'tgan yillar mobaynida ko'p qirrali sheriklik qamrovi sezilarli darajada kengaydi. Siyosiy muloqot, ta'lim, savdo, xavfsizlik hamda madaniy-gumanitar sohalarida hamkorlik izchil rivojlandi. Ayniqsa, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar Britaniya ishlabarmon doiralari hamda davlat tuzilmalari bilan aloqalarni yanada chuqurlashtirish uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochdi.

Xalqaro tajriba va milliy amaliyot

Buyuk Britaniya o'zining boy tarixi, madaniyati va innovatsion ruhi bilan nafaqat siyosiy, balki jahon iqtisodiyoti hamda moliyasida yetakchi mavqega ega. Uning yalpi ichki mahsuloti global miqyosda yuqori o'rinlarni egallab, mamlakatning barqaror rivojlanish sur'atlarini aks ettiradi. Bu iqtisodiy qudratning asosiy drayverlaridan biri – xizmat ko'rsatish sohasi. Bank ishi, sug'urta, aktivlarni boshqarish, valyuta savdosi va "FinTech" (moliyaviy texnologiyalar) yo'nalishidagi innovatsiyalar Buyuk Britaniyaning jahon moliyasidagi muhim mavqegini belgilaydi. Ko'plab xalqaro banklar, investitsiya

mavqegini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Ushbu davlat mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar, xususan, ochiqlik, shaffoflik, inson huquqlarini himoya qilish va sud-huquq tizimini erkinlashtirish yo'lidagi sa'y-harakatlarni faol qo'llab-quvvatlaydi. Bu esa O'zbekistonning xalqaro imijini yanada yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Ikki davlat o'rtasidagi doimiy siyosiy muloqotlar mintaqaviy xavfsizlik, xalqaro terrorizmga qarshi kurash va global masalalar bo'yicha pozitsiyalarni kelishish imkonini bermoqda. Madaniy almashinuvlar ham ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlaydi. Britaniya Kengashi kabi tashkilotlar orqali madaniy tadbirlar, san'at ko'rgazmalari va til

ma'rifatini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Ushbu davlat mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar, xususan, ochiqlik, shaffoflik, inson huquqlarini himoya qilish va sud-huquq tizimini erkinlashtirish yo'lidagi sa'y-harakatlarni faol qo'llab-quvvatlaydi.

Yaqinda o'tkazilgan O'zbekiston – Buyuk Britaniya infrazuilmalar konferensiyasida Britaniyaning o'ttizdan ortiq kompaniyalari ishtirok etdi. Ular qurilish, loyihalash, shaharsozlik va sog'liqni saqlash kabi sohalarida dunyodagi eng ilg'or tajribaga ega. Shuningdek, turizm, madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish va "yashil" iqtisodiyotga o'tish uchun zarur bo'lgan strategik minerallarni qazib olish bo'yicha ham hamkorlik imkoniyatlari nihoyatda keng. E'tiborlisi, O'zbekistonda investorlar uchun yaratilayotgan shaffof muhit Britaniya ishlabarmonlarining mamlakatimizga qiziqishini yanada oshirmoqda.

Britaniya o'zbekistonlik fuqarolar uchun istiqbolli mehnat bozoriga aylanib bormoqda. Ikki tomon Xalqaro migratsiya tashkilotining O'zbekistondagi vakolatxonasi hamda O'zbekiston Migratsiya agentligi bilan yaqin hamkorlikda "Mavsumiy ishchilar dasturi" (SWS) doirasida maxsus loyihani amalga oshirayotir. Ushbu tashabbus mehnat muhojirlarining o'z huquqlarini anglashi hamda soxta va dalal, noto'g'ri axborot xatarlaridan himoyalashiga xizmat qiladi.

Loyiha migratsiya jarayonining barcha bosqichlarini – jo'nab ketish oldidan yo'riqnomalar berish, ingliz tiliga o'qitish va axborot kampaniyalaridan tortib, Vatanga qaytgandan so'ng moliyaviy savdoxonlik, biznes ko'nikmalarini shakllantirish va kichik grantlar ajratishga bo'lgan jarayonlarni o'z ichiga oladi. Uzoq muddatli maqsad – xavfsiz va shaffof mehnat mobiligini ta'minlash orqali ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga hissa qo'shish, Markaziy Osiyo va Buyuk Britaniya o'rtasidagi mas'uliyatli sheriklikni yanada chuqurlashtirish.

Ikki davlat o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlik yildan-yilga jadal tus olmoqda. Bu esa o'zaro do'stona munosabatlarning mutlaqo yangi bosqichini boshlab berishi bilan bir qatorda, kelgusida manfaatli hamda istiqbolli yirik sheriklik loyihalarini hayotga tatbiq etish imkonini beradi.

Akram ABSALAMOV, Toshkent xalqaro universitetining akademik ishlar bo'yicha prorektori.

Hozirgi kunda O'zbekistonda Britaniya universitetlari diplomlarini taklif etuvchi 13 ta transmilliy ta'lim muassasasi muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotir. Bu esa jahon darajasidagi ta'lim standartlariga bo'lgan yuksak ishonchning amaliy ifodasidir. Ayni paytda 15 ming nafar o'zbekistonlik talaba Britaniya darajasi yoki diplom asosida tahsil olmoqda (taqqoslash uchun: o'tgan yili bu ko'rsatkich 10 ming nafarni tashkil etgan edi.)

Iqtisodiy aloqalar dinamikasi

Yuqorida qayd etilganidek, iqtisodiy aloqalar, xususan, savdo va investitsiyalar sohasidagi ko'rsatkichlar sezilarli darajada o'smoqda. 2016-yilda ikki tomonlama savdo aylanmasi hajmi 73 mln. funt sterlingni tashkil etgan

VETERINARIYA TARMOG'I ZAMONAVIY BOSQICHDA

Keyingi yillarda Toshkent davlat agrar universitetida yangi davr boshlanib, ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, kuni kecha zoinjeneriya fakultetida veterinariya xizmatlarini zamonaviy bosqichga olib chiqishga qaratilgan "Inno Vet Clinic" innovatsion veterinariya klinikasining ochilgani ham fikrimiz tasdig'idir.

Qulaylik

Ochilish marosimida ta'kidlanganidek, yangi, zamonaviy qiyofadagi klinikaning ishga tushirilishi veterinariya sohasida ilmiy asoslangan amaliy xizmatlarni rivojlantirish, chorvachilik tarmog'ida sifat va samaradorlikni oshirish yo'lida muhim qadam bo'ldi. Mazkur klinikada hayvonlar kasalliklariga tashxis qo'yish va davolash, ultravovush tekshiruv, rentgen hamda laboratoriya diagnostikasi, jarrohlik amaliyotlari, stasionar xizmat,



Tadbir doirasida ishtirokchilar universitetda chorvachilik, baliqchilik hamda asalarichilik yo'nalishlarida ta'lim o'zlashtirish uchun ta'lim beriladi. Ushbu barcha kreditlarini yozma ravishda xabardor etishi va qabul qilingan qaror to'g'risida ommaviy axborot vositalarida xabar berilishi shart. Bunda jamiyat kreditlari o'zlariga xabarnomalar yuborilgan paytdan boshlab o'ttiz kun mobaynida yoki qaror qabul qilingani to'g'risida xabar chop etilgan sanadan e'tiboran o'ttiz kun ichida jamiyatning tegishli majburiyatlarini muddatidan ilgari tugatishini yoki bajarilishini va ko'zga zararlarining o'rni qoplanishini yozma ravishda talab qilishga haqlidir.

REKLAMA

"SOLIQ KONSTRUKTOR" MCNJ

kreditorlari diqqatiga! "Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 49-moddasiga asosan, jamiyatni qayta tashkil etish haqida qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran, jamiyat qo'shib yuborish yoki birlashtirish shaklida qayta tashkil etilganda esa bu jarayonda qatnashayotgan jamiyatlardan oxirgisi tomonidan qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay bu haqda jamiyatning o'ziga ma'lum barcha kreditlarini yozma ravishda xabardor etishi va qabul qilingan qaror to'g'risida ommaviy axborot vositalarida xabar berilishi shart. Bunda jamiyat kreditlari o'zlariga xabarnomalar yuborilgan paytdan boshlab o'ttiz kun mobaynida yoki qaror qabul qilingani to'g'risida xabar chop etilgan sanadan e'tiboran o'ttiz kun ichida jamiyatning tegishli majburiyatlarini muddatidan ilgari tugatishini yoki bajarilishini va ko'zga zararlarining o'rni qoplanishini yozma ravishda talab qilishga haqlidir.

O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Sergeli tumani, Yangi Sergeli ko'chasi, 56-uy manzili bo'yicha joylashgan "SOLIQ KONSTRUKTOR" mas'uliyati cheklangan jamiyati Yagona ishtirokchisining 2026-yil 3-martdagi navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra "SOLIQ KONSTRUKTOR" mas'uliyati cheklangan jamiyatining tashkiliy-huquqiy shaklini "SOLIQ KONSTRUKTOR" aksiyadorlik jamiyati sifatida qayta tashkil etish bo'yicha qaror chiqarilganini ma'lum qilamiz. "SOLIQ KONSTRUKTOR" mas'uliyati cheklangan jamiyatining barcha huquq va majburiyatlarini topshirish dalolatnomasiga ko'ra "SOLIQ KONSTRUKTOR" aksiyadorlik jamiyatiga o'tadi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, Sizdan qonunchilikda belgilangan muddatlarda majburiyatlarining bekor qilinishi yoki muddatidan oldin bajarilishi va belgilangan muddatda zararni qoplash to'g'risida talabnomani taqdim qilishingiz mumkinligini bildiramiz.

Murojaat uchun telefon: +998 77- 481-33-00.

Joriy yilda kimyo sanoatida 9,5 mlrd. dollarlik 133 ta loyihani amalga oshirish doirasida 2,5 mlrd. dollar investitsiya jalb qilinishi rejalashtirilgan.

TIBBIYOTGA YANGI O'ZBEKISTON RUHI KIRIB KELMOQDA

Prezidentimizning 23-yanvar kuni Olmazor tumanida joylashgan klinikamizga tashrifi katta voqealik bo'ldi, desak, ayni haqiqat. Bu tashrif, albatta, bejiz emas edi. Davlatimiz rahbari klinikamizni ko'zdan kechirish barobarida mamlakatimizda xususiy tibbiyotni yanada rivojlantirish masalasiga e'tibor qaratdi, bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarni belgilab berdi. "Xususiy tibbiyotni joriy qilish bilan birga raqobatni ham unutmash kerak. Raqobat bo'lsagina, odamlarda tanlov bo'ladi. Xususiy davolanish markazlari ko'paysa, aholi davolanish uchun bergan puliga yarasha sifatli xizmatga erishadi", dedi davlatimiz rahbari.

Ko'z o'ngimizdagi o'zgarishlar

Har bir mijozga sifatli va xavfsiz tibbiy xizmat

"Sinomed" ko'p tarmoqli tibbiyot markazi zamonaviy tibbiyot texnologiyalarining eng so'nggi modellari bilan jihozlangan. Bunaqasi hali Markaziy Osiyoda yo'q deb bemaol aytoilaman. Shunga yarasha, shifokorlar ham talabga javob beradigan bo'lishi kerak. Biz faqat kasallikni tuzatmaymiz, balki bu yerga kelgan har bir mijozga, avvalo, g'amxo'rlik ko'rsatamiz. Hozir markazda 300 nafardan ziyod mutaxassislar faoliyat yuritayotgan bo'lsa, ularning 80 nafari yuqori malakaga ega shifokor. 60 nafari xorijda, xususan, Janubiy Koreya, Germaniya, Turkiya, Hindiston, Yaponiya, AQSH kabi davlatlarda malaka oshirib kelgan.

Markazimiz Germaniya – Turkiya modeli loyihasi asosida qurilgan bo'lib, yiliga to'rt yarim ming nafar bemorni qabul qilish quvvatiga ega. Klinikada diagnostika hamda stasionar bo'limlari mavjud. Sohaga taalluqli logistika degan tizim bor, shifokorlar ana shu tizim bo'yicha bemorlarni eng ilg'or texnologiyalar asosida davolaydi. Markaz orzusi – dunyo darajasida raqobatbardosh muassasaga aylanish. Biz oldimizga ana shunday katta maqsadni qo'yganmiz.

Davlat shifoxonalari palatalariga to'lanadigan narxga mos keladigan oddiy palatalarimizda ham barcha qulayliklardan tashqari muolaja, kislorod qo'yish, boshqa servis xizmatlari ko'rsatish xonalari mavjud. 4 tipdagi davolanish xonalari bor.

Bizda aholining to'lovga layoqatli qatlami xorijga borib davolanishini afzal ko'radi. Nimaga? Chunki ularning ongiga "Bizning shifokorlar yaxshi davolay olishmaydi" degan tushuncha o'mashib qolgan. Bu – noto'g'ri. Shunday malakali shifokorlarimiz borki, hatto xorijdan kelgan bemorlar ularning muolaja olib ketishadi. Xullas, endilikda tibbiyot markazimizning afzalliklarini aholiga ko'rsatishimiz, ularni xorijga borib davolanishdan ixtiyoriy voz kechib, bizga murojaat qilishiga erishishimiz kerak. Bu, albatta, katta mas'uliyat, tinimsiz mehnatni talab etadi. Biz bunga tayyormiz.

Markazda tibbiy turizmi rivojlantirishga alohida e'tibor qaratyapmiz. Faoliyatimiz shunday jozibali bo'lishi kerakki, uzoq va yaqin xorijda yashaydigan chet elliklar shu yerga kelib davolansin. Bu soha hali ochilmagan qo'riq. Buning uchun juda katta imkoniyatlarimiz bor, undan unumli foydalanishimiz lozim.

Biz xorijlik mijozlarga xalqaro darajada sifatli va xavfsiz tibbiy xizmat ko'rsata olamiz. Dunyo tibbiyoti ham ana shu ikki yo'nalishga alohida e'tibor qaratadi.

Takrorlash – bilimlarning onasi

Markazimizda shifokordan tortib oddiy hamshiragacha har haftada o'quv mashg'ulotlarida qatnashadi. Bu usulni Janubiy Koreyada o'rganganman va uni shu markazga tatbiq etdik. Bu niman beradi? Malakali shifokordan tortib oddiy hamshiragacha u yoki bu tibbiy jarayonni qayta-qayta o'rganishi ularning o'z tajriba va ko'nikmasini yanada mustahkamlashiga olib keladi. Fikrimcha, shu usulni mamlakatimizdagi barcha



tibbiyot muassasalariga joriy etish bo'yicha tizim yaratish kerak. Bu juda ijobiy natija beradi.

Tibbiyot markazimizga xorijlik mutaxassislarini doimiy ravishda jalb qilish kelayapmiz. Masalan, laboratoriyamizda juda katta malakaga ega Janubiy koreyalik mutaxassis ishlaydi. Unga xizmatiga yarasha oylik maosh to'laymiz. Maqsad – bu mutaxassis laboratoriya ishlarini Koreya Respublikasidagi shifoxonalarda laboratoriyasi darajasiga yetkazib bersin. Biz undan ana shuni talab qilamiz. Ishlash prinsipi, natijalari, ishonchligi, sifati va xavfsizligini ham.

Yaqinda Hindistondan 8 nafar malakali shifokorni muassasaga taklif etdik. Ular bemorlarni qabul qildi, tekshirdi, tashxis ko'yd'i va hokazo. Bizning shifokorlarimiz ham ularning yonida o'tirib o'rgandi, tajriba o'rtirdi. Chunki o'rganish aytb emas. Har bir shifokor bugungi davr talabiga javob beradigan bo'lishi kerak. Rossiya, Turkiya, Germaniya, Kuvaytdan mutaxassislar kelishdi. O'z navbatida, shifokorlarimizni muntazam ravishda



dunyoning eng mashhur klinikalariga malaka oshirishga, tajriba almashishga yuboryapmiz. Bunday amaliyotlar ijobiy natija beryapti. Markazda 10 ta jarrohlik amaliyoti, 40 ta ambulator qabulxonona, 20 ta kunduzgi stasionar, 150 ta yotoq o'rnini bor. Asosiy konsepsiyalarimiz bo'yicha bir kunlik tibbiyotni joriy etish ko'zlangan bo'lib, bunday tajriba Yevropa mamlakatlari va boshqa davlatlarda ham keng qo'llanilyapti.

"Har bir avlodga g'amxo'rlik" loyihasi

Toshkentda eng katta muammolardan biri – tug'uruq komplekslarining yetishmasligi. Hali birorta xususiy shifoxonada tug'uruq kompleksi yo'q.

Ular har bittasi o'z vaqtida ko'rikdan o'tishga taklif etiladi, agar shifoxonaga kelolmasa, xodimlarimiz uyiga borib, ko'rikdan o'tkazib keladi. Bu patronaj xizmati deyiladi. "Har bir avlodga g'amxo'rlik" loyihasi bo'yicha bola tug'ilgandan keyin ham 14 yoshgacha nazoratimizda bo'ladi.

Markazda ishlayotgan ko'plab professorlar Germaniya, Fransiya, Kuvayt va boshqa davlatlarning eng ilg'or tibbiyot muassasalarida malaka oshirgan. Kardiolog, intervension kardiologlarimiz yaqinda Germaniyada malaka oshirib qaytdi.

Davlatimiz rahbari bundan 9 yil muqaddam aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishning Koreya modeli

"Hozir markazda 300 nafardan ziyod mutaxassislar faoliyat yuritayotgan bo'lsa, ularning 80 nafari yuqori malakaga ega shifokor. 60 nafari xorijda, xususan, Janubiy Koreya, Germaniya, Turkiya, Hindiston, Yaponiya, AQSH kabi davlatlarda malaka oshirib kelgan."

Biz bu borada birinchi qaldirg'ochimiz, desam ham bo'ladi. Markaz tarkibida Toshkent shahrida birinchi xususiy tug'uruq majmuasi ishga tushirilgan bo'lib, bir vaqtning o'zida 30 nafar onaga xizmat ko'rsatadi. Kelgusida o'rinlar sonini yanada ko'paytirish niyatidamiz. Bolalarni emlash, profilaktik ko'riklar ham shu yerdga o'tkaziladi. Call-markazlar, maxsus patronaj jamoalari tashkil qilingan.

Respublikadagi eng katta xususiy vaktsinasiya markazi, xususiy sektordagi yagona sterilizatsiya markazi barpo etilgan. Yevropa andozalari asosida sterilizatsiya ishlarini amalga oshiriladigan bunday markaz nainki Markaziy Osiyoda, balki MDH mamlakatlarida ham yo'q.

Prezidentimiz doim xalqqa tibbiyotni yaqinlashtirgilar, deb keladi. Mana shu tug'uruq kompleksi – xalqqa tibbiyotni yaqinlashtirishning yorqin misoli. Bu kompleks dunyodagi eng ilg'or tibbiyot muassasalari faoliyatini o'rganish natijasida qurilgan. Bizda ro'yxatga olingan homilador ayol tug'uruqqaacha va undan keyin ham doimiy nazoratda

mamlakatimiz tibbiyot tizimiga joriy etish kerak, degan fikrni bildirgan edi. Koreya Respublikasi aholiga xavfsiz va sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha dunyo mamlakatlarining birinchi o'ntaligiga kiradi. Nimaga? Chunki bu yerdagi klinikalarning 95 foizi xususiy. Bunday klinikalarda korruptsiya holatlari yo'q hisobi. Chunki har bir holat nazoratda, xodim mijozga qanchalik xavfsiz va sifatli tibbiy xizmat ko'rsatsa, maoshi ham shunga qarab oshadi.

Tibbiyot turizmi – bizonaning bir turi

Bugun xususiy klinikalarda bemorlarga xizmat ko'rsatish davlat klinikalariga qaraganda biroz arzon va sifatli. Raqobat bor joyda tibbiy xizmat arzon bo'ladi. Buning ustiga, xodimlar mijozning mablag'ini tejashga harakat qiladi. Chunki arzon va sifatli muolaja olgan mijoz ertaga, albatta, shu yerga qaytib keladi, o'zining tanish-bilishlarini ham ushbu klinikaga yo'llaydi.

Yana bir tomoni bor. Xususiy tibbiyot – xohlaymizmi-yo'qmi, biznesning bir turi. Shuni yaxshi tushunib olishimiz kerak. Bu yangi-yangi ish o'rinlari hamda hamyonbop tibbiy xizmat ko'rsatishga o'tish, degani. Ularning negizida bir qancha tibbiyot universitetlari tashkil etildi. Bu – ilm-fan uyg'unligi, degani. Xususiy klinikalar raqobati har bir mijoz uchun shu muassasaga bemaol murojaat qilish imkoniyatini yaratadi. Davlatimiz rahbari tibbiyot markazida bo'lganida ana shularga e'tibor qaratishni alohida ta'kidladi.

Hozir davlat tibbiyot muassasalari xodimlarining oylik maoshi ko'tarilgan. Xususiy klinikalarda maoshni ular dan kam qilib ko'ring-chi, qani kim kelarkan? Hech kim kelmaydi! Buni hammamiz yaxshi bilamiz. Shuning uchun muassasamizga malakali, xorijda tajriba o'rtirib qaytgan eng yaxshi mutaxassislarni taklif qilamiz va tabiiyki, ularning oylik maoshi ham yuqori bo'ladi. Natijada bu yerda korruptsiya, poraxo'rlik bo'lmaydi, buning iloji ham yo'q. Xodimlarga esa mehnatiga yarasha munosib haq to'lanadi.

Odam tanasida qon aylanib tursa, u sog'lom bo'ladi

Men Janubiy Koreyaning sobiq Prezidentlaridan biri bilan suhbatlashganida uning bir gapini eslab qolganman. "Iqtisodiyotning qoni, bu – pul, degan edi u. – Hammamiz bilamiz: odam tanasidagi qon aylanib tursa, u sog'lom bo'ladi. Xuddi shunday, iqtisodiyotda ham pul muntazam aylanib tursa, davlat sog'lom bo'ladi".

Olmazor tumanining ushbu hududida klinikamiz faoliyat ko'rsata boshlaganidan buyon ko'chaning narigi tomonida uchta xususiy mehmonxona, dorixona, oshxona, servis xizmatlari, minimarket va hokazolar qurildi. Bu ham yangi ish o'rinlari, degani. Infrastruktura rivojlanyapti. Odamlar biyapapti, mana shu yerda ochilgan "Sinomed" ko'p tarmoqli tibbiyot markaziga kelayotgan mijozlar soni kundan-kunga oshyapti.

Demak, o'z-o'zidan mehmonxonaga qurish, qulayliklar yaratish, turli xizmatlarni tashkil etish kerakligini aholi tushunib yetyapti. Bu esa to'g'ridan-to'g'ri iqtisodiyotni ko'tarishga xizmat qiladi.

Markazimiz tibbiyotning eng zamonaviy brendlarini o'zida jamlaganini bilan ahamiyatli. Bu yerdagi texnologiyalar Buyuk Britaniya, Italiya, Yaponiya va Germaniya davlatlaridan olib kelingan.

"Sinomed" ko'p tarmoqli tibbiyot markazi mijozlarga sifatli va xavfsiz xizmat ko'rsatishning xalqaro standartlarini joriy qilgan holda, sohada yangi bosqichni boshlab bermog'da. Zero, aholi salomatligi millat kelajagining ishonchli kafolati, farovonlikning asosidir.

Kamolxo'ja ESHNAZAROV, "Sinomed" ko'p tarmoqli tibbiyot markazi rahbari, tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor.

REKLAMA

FUTBOL xabarlari

JAHON CHEMPIONATIGA BIR QADAM

Avstraliyada shu kunlarda o'tkazilayotgan ayollar o'rtasidagi Osiyo kubogi musobaqalarida O'zbekiston terma jamoasi chorak finalda "A" guruhni g'olibi Janubiy Koreya bilan bahs olib boradi.



Musobaqaning "B" guruhida uchinchi o'rin bilan mazkur bosqichga yo'l olgan qizlarimiz dastlabki ikki o'yinda jahon ayollar futbol yetakchilari – Xitoy va Koreya Xalq Demokratik Respublikasi vakillariga bir xil 0:3 hisobida yengilgan bo'lsa-da, hal qiluvchi o'yinda Bangladesh ayollar terma jamoasini yirik 4:0 hisobida mag'lubiyatga uchratdi. Gollarni D. Habibullayeva, D. Nozimova (2) va N. Qudratova kiritdi.

Bo'lajak bahs 14-mart kuni Sidney shahrida tashkil qilinadi. Mazkur bellashuv g'olibi kelasi yili Braziliyada bo'lib o'tadigan jahon chempionati yo'llanmasiga ega bo'ladi. Imkoniyatni boy bergan jamoa esa mundial yo'llanmasi uchun chorak finalning boshqa bir juftligida mag'lub bo'lgan ishtirokchi bilan kurash olib boradi.

TOSHKENTDA XALQARO TURNIR O'TKAZILADI

Futbol tarixida ilk marotaba 3 ta mamlakatda o'tkaziladigan jahon chempionati boshlanishiga uch oydan kam vaqt qoldi. Ayni paytda unda ishtirok etadigan 42 ta milliy terma jamoa ma'lum. Qolgan 6 ta jamoa mart oyi so'ngida uyushtiriladigan "play-off" bahslari orqali aniqlanadi.

F. Kannavaro murabbiyligidagi O'zbekiston milliy terma jamoasi birinchi marta bo'lib jahon chempionati yo'llanmasini hal qilgan uchun FIFAning "FIFA Series – 2026" o'rtoqlik o'yinlarida maydonga chiqadi.

Toshkentdagi "Paxtakor" stadionida "Bunyodkor" hamdani darajasiga yetkazilgan bahslarda Gabon, Trinidad-Tobago, Venesuela va O'zbekiston futbolchilari o'zaro bellashadi. Dastlab vakillarimiz 27-mart kuni Gabon termasi bilan kuchinlashadi, 30-mart sanasida Venesuela jamoasiga qarshi maydonda saf tortadi. Har ikki o'yin soat 19:00 da boshlanishi rejalashtirilgan.

SUPERLIGA QIZIQARLI TUS OLMOQDA

O'ttiz oltinchi bor uyushtirilayotgan O'zbekiston superligasi bahslarida 16 ta jamoa chempionlik uchun kurashga kirishgan. Kecha mamlakat birinchi ligasining 3-tur o'yinlari ortda qoldi.



Farg'onadagi markaziy "Istiqlol" stadionida kechgan "Neftchi" va "Andijon" o'rtasidagi bellashuvda amaldagi chempion yirik hisobda g'alaba qozondi – 3:0. Toshkentda o'tgan yana bir markaziy bahsda Timur Kapadze murabbiyligidagi "Navbahor" O'zbekistonning ko'p karra chempioni "Paxtakor" ustidan 2:0 hisobida ustun keldi. Mazkur natija Namangan jamoasining 1995-yildan beri mehmonda qo'lga kiritgan ilk g'alabasi bo'ldi. Shuningdek, dastlabki ikki turda g'alaba qozongan "Buxoro" klubi o'z maydonida "Xorazm" jamoasi bilan 1:1 hisobida durang o'ynadi.

Turning qolgan bellashuvlarida quyidagi natijalar qayd etildi: "Lokomotiv" – "Qo'qon-1912" 0:0, "Surxon" – "Bunyodkor" 0:0, "Mash'al" – "Qizilqum" 0:2, OKMK – "So'g'diyona" 2:2, "Dinamo" – "Nasaf" 1:1.

Sunnatilla ISLOMOV ("Xalq so'zi") tayyorladi.

INVESTOR VA QURILISH TASHKILOTLARI RAHBARLARI DIQQATIGA!

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi PQ-118-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-oktabrdagi 865-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bekto'pi mahallasi, Al-Xorazmiy 1-mavze, 44-uyda joylashgan Chilonzor tumani IIOFMB 1-sonli IIB binosi o'rtasidagi qurilish umumiy maydoni 633 kvadrat metr (0.063 ga) bo'lgan bo'sh yer maydonida Toshkent shahar ichki ishlar organlari xodimlari uchun ko'p qavatli turarjoy binosini "tayyor holda topshirish" shartlari bilan davlat-xususiy sherikligi asosida qurish va ko'p qavatli turarjoy binosining birinchi va ikkinchi qavatlarida Chilonzor tumani IIOFMB 1-sonli ichki ishlar bo'limi uchun xizmat xonalarini joylashtirish bo'yicha investorlar va qurilish tashkilotlari mutasaddilarini hamkorlikka taklif etamiz.

Tanlovda qatnashish istagida bo'lgan tashkilotlar vakillaridan quyidagilar talab qilinadi:

- Investor yoki qurilish tashkilotining nizomi va guvohnomasi;
- Investor yoki qurilish tashkilotining tashkiliy tuzilishi bo'yicha ma'lumot;
- Investor yoki qurilish tashkilotining oxirgi uch yillik (2023, 2024 va 2025-yillar) moliyaviy holati to'g'risida ma'lumot (oxirgi uch yillik "F-1" va "F-2" hisobotlari, pudrat shartnomalari, obyektini foydalanishga

- topshirish bo'yicha nusxalarini ilova qilishi shart);
- Xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan investor yoki qurilish tashkilotining qarzdorligi mavjud emasligi to'g'risida ma'lumotnoma;
- Soliq inspeksiya tomonidan investor yoki qurilish tashkilotining qarzdorligi mavjud yoki mavjud emasligi to'g'risida ma'lumotnoma hamda ishchi xodimlari to'g'risida ma'lumot (soliq hisobotida ko'rsatilgan ishchilar soni "milliy mehnat uz" bazasiga (my.mehnat.uz) to'g'ri kelishini isbotlovchi hujjatlari ilova qilish shart);

- Investor yoki qurilish tashkilotining moddiy-texnika bazasi hamda qurilish texnikasi va kichik qurilish mexanizmlari to'g'risida ma'lumot (texnik pasportlarning nusxalari bo'lishi shart);
- Qurilish rejalashtirilgan hududga loyiha taklifi (bosh reja, fasad, qavatlar rejai, "3D" ko'rinishda);
- Qurilish ishlarini olib borish, qurilish muddatlari va shartlari ko'rsatilgan tarmoq rejai (tasdiqlangan ko'rinishda);
- Qurilish rejalashtirilayotgan ko'p qavatli turarjoy binolaridagi xonadonlarning eng kamida 50 foizini ichki ishlar organlari xodimlari va harbiy xizmatchilari uchun imtiyozli arzonlashtirilgan narxlarda sotish bo'yicha hisoboti (tijorat taklifi);
- Loyihalananayotgan ko'p qavatli turarjoy binosi joylashgan hududda qo'shimcha ravishda alohida transformator, avtomobillar turarjoyi, chiqindi tashlash joyi hamda bolalar maydonchasi bo'lishi shart.
- Taklif uchun loyihalananayotgan ko'p qavatli turarjoy binosining qavatlarini yer maydoni joylashgan tuman bosh arxitektori

bilan maslahatlashgan holda kelishishi lozim. 12. Mazkur shartlar bo'yicha hamkorlik qilish istagidagi investor yoki qurilish tashkilotlari 2026-yilning 12-aprel kuniga qadar tanlov yuzasidan tayyorlangan hujjatlarni topshirish uchun quyidagi manzilga murojaat etishlari mumkin.

Toshkent shahri, Mirobod tumani, Sodiq Azimov ko'chasi, 87-uy. Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi. Telefon: 71-206-44-08.

Qurilish rejalashtirilayotgan obyekt manzili:

- Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bekto'pi mahallasi, Al-Xorazmiy 1-mavze, 44-uyda joylashgan Chilonzor tumani IIOFMB 1-sonli IIB binosi o'rtasidagi qurilish umumiy maydoni 633 kvadrat metr (0.063 ga) bo'lgan bo'sh yer maydoni.

24 – 30-mart kunlari Surxondaryo viloyatida o'quvchi qizlar o'rtasida futbol bo'yicha "Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri kubogi" o'yinlarining respublika bosqichi bo'lib o'tadi.

Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-142. 31 016 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuktib olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxonona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begumarov tomonidan sahilalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxonaga telefon: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbachi muharrir G. Bahromov.
Muhahhili S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonaga manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 21.10 Topshirildi – 23.40 1 2 3 4 5 6